

JADIDCHILIK PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI

G‘oyibnazarov Rahmatilla

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, Pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati, shaxsini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, metodikalar, ta’limga oid asarlar va darsliklar, bugungi ta’lim tizimi, milliy innovatsiyalar, ilg‘or g‘oyalar, xalqning qadimiy tarixi, diniy qarashlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, o‘qituvchilarda zamonaviy fikrlash, tarixiy-pedagogik, ta’lim paradigmalari, ayollar ijtimoiy mavqeini oshirish, teng huquqli jamiyatni shakllantirish, uyg‘unlik, dunyoqarash, metodologik asoslar, jadidlar merosi, zamonaviy ta’limda uzviylik, yoshlarni radikalizm, ekstremizm va begona g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish, zamonaviy mafkuraviy immunitet shakllantirish, zamonaviy inklyuziv ta’lim, gender ta’lim tamoyillari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: jadid pedagogikasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, talaba shaxsi, milliy qadriyatlar, ta’lim tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение джадидской педагогики в современной системе образования, формирование личности, духовно-нравственное воспитание, методика, труды и учебники по образованию, современная система образования, национальные инновации, передовые идеи, древняя история народа, религиозные взгляды, духовно-нравственные ценности, современное мышление у учителей, историко-педагогические, образовательные парадигмы, повышение социального статуса женщин, формирование равноправного общества, гармония, мировоззрение, методологические основы, наследие джадидов, преемственность в современном образовании, защита молодежи от радикализма, экстремизма и чуждых идеологических угроз, формирование современного идеологического иммунитета, современное инклюзивное образование, принципы гендерного образования.

Ключевые слова: педагогика джадидизма, духовно-нравственное воспитание, личность студента, национальные ценности, система образования.

Annotation: This article covers the significance of Jadid pedagogy in the modern education system, personality formation, spiritual and moral education, methodologies, educational works and textbooks, today's education system, national innovations, progressive ideas, ancient history of the people, religious views, spiritual and moral values, modern thinking in teachers, historical-pedagogical, educational paradigms, raising the social status of women, forming an equal society, harmony, worldview, methodological foundations, Jadid heritage, continuity in modern education, protecting youth from radicalism, extremism and alien ideological threats, forming modern ideological immunity, modern inclusive education, principles of gender education.

Keywords: *Jadid pedagogy, spiritual and moral education, student personality, national values, education system.*

KIRISH

Jadidchilik pedagogikasi o‘zining mohiyatiga ko‘ra ilm-fan taraqqiyotiga tayanadi. Jadidlar ta‘lim jarayonini yangilashda il g‘or g‘oyalarni, Yevropa va Osiyo ta‘lim tajribalarini chuqur o‘rganib, ularni milliy maktab tizimiga moslashtirishga harakat qilganlar. Barchamizga ayonki, Tilda, fikrda, ishda birlik degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqo g‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar [1]. Bu yondashuv, o‘z navbatida, hozirgi kun ta‘limida integratsiyalashgan o‘qitish modellariga asos boladi. Ilmiylik prinsipining ustuvorligi – har qanday ta‘lim mazmunining ishonchli manbalarga asoslanishini, zamonaviylik esa – o‘quv jarayonining jamiyat rivoji bilan hamnafas bo‘lishini ta‘minlaydi.

Qariyb yuz yildan ziyod vaqt o‘tgan bolsa-da, bu ma‘rifatparvar insonlar ruhsiz tandur, xanjar ura, qoni sachramas yurt va oqibatsiz, hamiyatsiz, gayratsiz millat

dardida yurak qoni bilan yozgan bitiklar hamon zamonamizga hamohang yangraydi. Ba‘zan taassuf ila oylaysan kishi: turmushning ma‘rifatsiz va tuban illatlariga qarshi ular (kitobsiz xonadonlar, isroflil dabdabali to‘ylaru boshqa keraksiz, soxta diniy marosimlar va hokazo haqida) yozgan kuyunchak maqolalar havoga uchib ketmadimi? Nega bu muammolar hali- hanuz oyo g‘imizga tushov bo‘lib qolmoqda? Nega milliy ong, sezim va turmushning himoyachisi bolmish ziyolilar matonatsiz, nega ularning jamiyatdagi o‘rni yoq hisobi? Oylayman-u, bu savollarga yechim borligini yaxshi bilaman. Sizif taqdiriga mahkumlik nechogliq ayanchli bolmasin, ma‘rifatchi bobolarimiz yo‘lidan yurishda davom etish lozimligini anglayman. Zero, Vatanni sevis, uning orzu-armonlari, quvonch-tashvishlari bilan yashash, millat turmushidagi illat va kamchiliklarga murosasiz bo‘lish Sizif mehnatini eslatsa-da, u bobolarimiz bukilmas matonati tufayli erishgan sharaf hamdir.

Ma‘rifatchi bobolarimizning bu o‘gitlari bugun ham dolzarb. Mustaqillikdan keyin adabiyotimizda boshlangan yangilanish jarayoni faqat zamonga hamohanggina emas, elu yurt taqdiriga hamnafas bo‘lsin. Ayrim kitoblarda namoyon bo‘layotganidek – G‘arbning mashhur asarlari, adabiy tajribalarini ko‘r-ko‘rona, rangsiz va jonsiz takror etish yo‘lidan emas, bobolarimiz aytganidek, muvozanat yo‘lidan, o‘rganishga arziydigan tajribalarni rad etmagan holda, joni va ruhi milliy zamindan uzilmagan yo‘ldan borish kerak [3].

Jadid pedagogikasi asosida xalqning qadimiy tarixi, diniy qarashlari, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlari yotadi. Jadidlar o‘z faoliyatida musulmon sharqining boy ma‘naviy merosiga suyanib, vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlarni yosh avlod tarbiyasining asosi sifatida ilgari surganlar. Ayniqsa, Abdulla Avloniy o‘zining Turkiy guliston yoxud axloq asarida axloqiy tarbiya va milliy ruhiy-ma‘naviy barkamollikni asosiy tarbiyaviy yo‘nalish sifatida belgilagan. Zamonaviy ta‘limda ham milliy identiklikni asrash, madaniy merosga hurmat bilan qarash yosh avlodni ijtimoiy xavflardan, g‘oyaviy

beqarorlikdan himoya qilishning Jadidlar oquv jarayonida anʼanaviy yodlash va takrorlashdan voz kechib, oʻquvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga intildilar. Ular koʻrgazmali taʼlim vositalarini, yangi darslik va qoʻllanmalarni ishlab chiqish, tajribaga asoslangan taʼlim metodlarini joriy qilish orqali interaktiv, faoliyatga asoslangan taʼlim tizimini taklif etdilar.

Jadid pedagoglari, ayniqsa Mahmudxoʻja Behbudi, Munavvar qori va boshqalar qiz bolalar taʼlimining zarurligini taʼkidlab, ular uchun alohida maktablar tashkil etganlar. Bu orqali ular ayollar ijtimoiy mavqeini oshirish, teng huquqli jamiyatni shakllantirish yoʻlida muhim qadamlar qoʻyganlar. Hozirgi kunda gender tengligi xalqaro taʼlim tamoyillarining ajralmas qismi boʻlib, Oʻzbekiston taʼlim siyosatida ham muhim oʻrin tutmoqda. Jadidlarning bu boradagi yondashuvi zamonaviy inklyuziv va gender sezgir taʼlim tamoyillari bilan bevosita boʻgʻliqdir.

Bugungi globallashuv, madaniyatlararo almashinuv va maʼlumotlar oqimining tezligi sharoitida yosh avlodda milliy oʻzlikni yoʻqotish xavfi kuchaymoqda. Jadidlarning milliy ong va oʻzligimizni uy gʻotishga qaratilgan faoliyati zamonaviy mafkuraviy immunitet shakllanishida oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Bu yondashuv yoshlarni radikalizm, ekstremizm va begona gʻoyaviy tahdidlardan himoya qilishda dolzarb vositadir.

Jadidlar ilgari surgan metodikalar, taʼlimga oid asarlar va darsliklar bugungi taʼlim tizimi uchun milliy innovatsiyalar tayanchiga aylanishi mumkin. Jadidlarning il gʻor gʻoyalari orqali oʻqituvchilarda zamonaviy fikrlash, reflektiv yondashuv, pedagogik kreativlikni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Yangi texnologiyalar (raqamli darsliklar, media platformalar, video darslar) orqali jadidlar asarlarini, gʻoyalarini yosh avlodga yetkazish zamonaviy axborot asrida juda dolzarbdir.

Soʻnggi yillarda global miqyosda taʼlim tizimida keskin oʻzgarishlar yuz bermoqda. Har bir davlat oʻzining milliy qadriyatlariga tayanib, raqobatbardosh taʼlim modelini shakllantirishga intilmoqda. Oʻzbekiston taʼlim tizimida ham bu borada islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tarixiy-pedagogik merosdan foydalanish, anʼanaviy taʼlim maktablarini zamonaviy paradigmalariga integratsiya qilish zarurati kuchaymoqda.

Maʼrifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor boʻlib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yoʻqmi, xalqimiz jadid bobolarimiz koʻrsatib bergan yoʻldan oʻgʻishmay borishi kerak. Chunki ularning gʻoya va dasturlari Yangi Oʻzbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uy gʻun va hamohangdir,

Shu maʼnoda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati taʼlim sohasida oʻziga xos inqilob boʻldi. Jadidlar zamonaviy bilimlarni milliy qadriyatlar bilan uy gʻunlashtirib, yangi pedagogik usullarni yaratdilar. Ismoil Gʻaspirinskiy, Mahmudxoʻja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar millatni uy gʻotish, ilm-maʼrifat orqali taraqqiyotga yetaklashni bosh shior deb bildilar. Ularning asarlarida oʻquvchining maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi, mustaqil fikrlashi, jamiyatdagi oʻrni haqida chuqur tahlil mavjud.

Zamonaviy dunyo tajribasiga murojaat qilsak, il g‘or ta‘lim tizimlari (Yaponiya, Finlandiya, Janubiy Koreya) aynan axloqiy tarbiya, ijtimoiy faollik va milliy g‘urur tamoyillarini ustuvor deb biladi. O‘zbekistonda ham bu borada qadimiy ma‘naviy asoslar bor. Ammo ularni zamonaviy yondashuvlar bilan uy g‘unlashtirish uchun mustahkam nazariy-metodik poydevor talab etiladi. Jadidlar pedagogikasi esa aynan shunday asos bo‘la oladi.

Shu sababli, ushbu maqolada jadid pedagogikasining zamonaviy ta‘lim bilan uzviy bog‘liqligi, talabaning ma‘naviy qiyofasini shakllantirishdagi roli va metodologik asos sifatidagi o‘rni chuqur ilmiy jihatdan yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot davomida jadid pedagogikasining zamonaviy ta‘limdagi uzviyligi, ma‘naviy-axloqiy tarbiyadagi o‘rni va metodologik asos sifatidagi salohiyatini o‘rganish uchun quyidagi kompleks metodlar qo‘llanildi:

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan jadid ziyolilar – Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ismoil G‘aspirinskiy kabi mutafakkirlarning asarlari, darsliklari va pedagogik risolalari o‘rganildi. Xususan, Avloniyni Turkiy guliston yoxud axloq asari asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Tahlillar orqali jadidlar ta‘limga qanday yondashgani, o‘quvchi va o‘qituvchi obrazlari, ta‘limning ma‘naviy- ma‘rifiy mohiyati aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot (so‘rovnoma va suhbatlar) So‘rovnomada bir qancha savol bo‘lib, quyidagilarni aniqlashga qaratilgan edi: jadidlar haqida bilim darajasi; talaba shaxsiga ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning ta‘siri; o‘qituvchi shaxsiga munosabat; jadid merosini ta‘limga tatbiq etishga bo‘lgan munosabat. Shuningdek, o‘qituvchi-pedagog bilan yarim strukturaviy suhbatlar olib borish. Bu orqali ilmiy-pedagogik doira fikrlari jamlandi.

Eksperimental darslar tashkil etish sinov tariqasida o‘quv mash g‘ulotlarida jadid usullariga yaqin bo‘lgan interfaol metodlar – munozara, teatrlashtirish, badiiy ifoda, ijtimoiy loyiha taqdimoti kabi yondashuvlar qo‘llash. Mash g‘ulotda talabalar O‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?, Millatni kim uy g‘otadi?!, Tarbiya va ta‘lim birligi haqida fikringiz kabi mavzularda ochiq fikr bildirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-adabiy manba tahlili ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiyalarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish. Ularda jadidlar pedagogikasining ilmiy izlanishlardagi o‘rni, metodologik asos sifatidagi salohiyati o‘rganiladi. Xorijiy adabiyotlardan ingliz, rus va turk tilidagi manbalar atroflicha tahlil qilinadi. Ushbu metodlar tadqiqotga ilmiy asos, amaliy real holat va nazariy chuqurlikni ta‘minlaydi. Yondashuvlar uy g‘unligi esa jadid pedagogikasining bugungi ta‘limdagi dolzarbligini aniqlashga imkon berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi: Jadid pedagogikasining asosiy tamoyillari tizimlashtirildi. Tarixiy-pedagogik tahlillar orqali jadidlar tomonidan ilgari surilgan o‘nlab metodik qarashlar (ma‘naviy tarbiya, faol o‘qituvchi, teatrlashtirilgan ta‘lim, mustaqil fikrlash, gender tengligi, til va millat uy g‘unligi, estetik tarbiya) aniqlandi va tasniflandi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar orasida jadidlar haqida yetarli bilimlar bo‘lsada u bilimlarni hayotga bo‘g‘alay olish ko‘nikmasini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi aniqlandi.

Jadid metodikasi asosida tashkil etilgan darslar talabalar faolligini oshirdi: Teatr, munozara, guruhli tahlil, sahnalashtirish, dramatik o‘qish kabi faol metodlar orqali olib borilgan tajriba darslarida talabalar ishtiroki 35–40% ga oshgan. Ayniqsa, badiiy matn asosida tahlil qilish, o‘qituvchi obrazini sahnada jonlantirish orqali ularda ijodiy fikrlash kuchaygani kuzatildi.

Kontent tahlil orqali talabalar fikrlarida ma‘naviy yuksalish kuzatildi: Talabalarning yozgan esse va o‘g‘zaki chiqishlari tahlil qilindi. Ular orasida o‘qituvchilik muqaddaslik, axloqiy poydevor, milliy iftixor, jadidlar orzusi – bizning vazifamiz kabi iboralar ko‘p ishlatilgan. Bu ularning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini o‘rishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Jadid g‘oyalari zamonaviy yondashuvlar bilan uy g‘un ekani aniqlandi va qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta‘lim, faol metodlar va interaktiv o‘qitish usullari aslida jadidlar qarashlari bilan uy g‘un keladi. Misol uchun, Avloniy asarlarida o‘qituvchi xalq tarbiyasi uchun mas‘ul muqaddas zot deb tasvirlangan, bu esa bugungi zamonaviy o‘qituvchi lider konsepsiyasi bilan mos tushadi.

Talabalar orasida jadidlar g‘oyalariga ijtimoiy ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. So‘rovnomada ishtirok etgan talabalar ta‘limda milliy ruh, tarixiy ibrat yetishmaydi deb javob bergan. Bu esa jadid merosining o‘rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi zarur ekanini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasi bugungi zamonaviy ta‘lim jarayonida uzviylik, ma‘naviy asos, hamda ilmiy metodologik yo‘nalish sifatida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari jadid pedagogikasi zamonaviy ta‘lim tizimi bilan uzviy bo‘g‘liq ekanini ko‘rsatdi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar – axloqiy tarbiya, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, faol metodlar, teatr va sahnalashtirish orqali ta‘lim, milliylik va dunyoviylik uy g‘unligi bugungi zamonning eng dolzarb masalalari bilan mushtarakdir.

Jahon miqyosida keng tarqalgan shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar (UNESCO, OECD ta‘lim strategiyalari) asosan o‘quvchining faoliyati, mustaqil fikri va ijtimoiy mas‘uliyatini kuchaytirishga qaratilgan. Shu xususiyatlar jadidlarining asosiy maqsadi bo‘lgan. Abdulla Avloniy tarbiya orqali jamiyatni to‘g‘rilash g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy ma‘rifat bilan inson ongini uy g‘otishni ta‘limning negizi deb bilgan. Demak, zamonaviy yondashuvlar jadidlikdan uzoq emas – balki ularning mantiqiy davomi.

Tadqiqotdan ma‘lum bo‘ldiki, zamonaviy ta‘lim ko‘p hollarda texnologik jihatdan rivojlangan bo‘lsa-da, axloqiy va ruhiy tarbiya uy g‘unligi yetarli emas. Jadidlar esa aynan shu jihatga ur g‘u bergan: o‘quvchiga nafaqat bilim, balki imon, vijdon, oriyat, burch va mas‘uliyat hissini berish. Bu qadriyatlar hozirgi zamonda ijtimoiy inqiroz,

individualizm, madaniyatsizlik, ongsiz iste‘molchilik kabi illatlarni bartaraf etishda muhim vosita bo‘la oladi.

Jadidlar o‘qituvchini faqat bilim yetkazuvchi emas, balki millatni uy g‘otuvchi, ma‘naviy yetakchi sifatida ko‘rgan. Avloniy aytganidek, Muallimlik – eng sharaflilik, ammo eng mas‘uliyatli kasbdir. Bu qarashlar XXI asrda lider o‘qituvchi, mentorlik, pedagogik refleksiyalar kabi tushunchalar bilan boyitilgan. Demak, jadidlar tomonidan belgilangan o‘qituvchi modeli zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan to‘la uy g‘undir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, teatr, munozara, sahnalashtirish kabi faol metodlar talabada ijtimoiy mas‘uliyat, estetik did, milliy g‘urur tuy g‘ularini uy g‘otadi. Bu esa faqat bilim emas, balki tarbiya ham beruvchi yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi. Talaba o‘z shaxsiy axloqiy qiyofasini shakllantira boshlaydi. Ayniqsa, talabalar esse yozish jarayonida jadidlarning hayoti orqali o‘ziga namunalar olgan — bu esa faol o‘rganishning yuqori darajasi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jadid pedagogikasi zamonaviy ilmiy izlanishlarda metodologik poydevor bo‘la oladi. Chunki u: aniq mafkuraviy asosga (ma‘rifat, axloq, milliy uy g‘onish) ega; o‘z davrida xalqaro yondashuvlarni o‘rganib, tanlab joriy etgan; o‘zbek pedagogikasining falsafiy negizlarini yaratgan.

Shuning uchun hozirgi pedagogik tadqiqotlar jadidlar merosini nazariy, amaliy va metodik jihatdan yangicha o‘rganib, ilmiy tajriba bilan boyitmo g‘i lozim.

XULOSA

Jadid pedagogikasi mohiyati bilan nafaqat tarixiy bir hodisa, balki hozirgi va kelajak ta‘limi uchun uzviy, boy, ma‘naviy va metodologik asos bo‘la oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadidlar ilgari surgan g‘oyalar bugungi zamonaviy yondashuvlar bilan uy g‘unlashadi, hattoki ularning ayrim tamoyillari hozirgi ta‘lim paradigmalari uchun zamin bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi yoshlar ongiga kuchli ma‘naviy-axloqiy immunitetni singdirish, ularni milliy g‘urur, vijdon va ijtimoiy mas‘uliyat asosida tarbiyalash jamiyat barqarorligi uchun juda muhimdir. Bu borada jadidlar asarlarida ilgari surilgan tarbiya va ta‘limning birligi, o‘qituvchining muqaddasligi, ilmga mehr va ijtimoiy adolat kabi tushunchalar asosiy tamoyillar hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘rganilgan nazariy va amaliy dalillar bugungi kunda milliy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasida uzviy ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu jarayonda jadidlarning faol usullari – teatrlashtirish, badiiy tahlil, munozara, mustaqil fikrlash va ra g‘batlantirish orqali talabaning ijodkorligi va ruhiy o‘sishi ta‘minlanadi. Xulosa qilib, jadid pedagogikasi – bu o‘tmishning o‘quv modeli emas, balki kelajak ta‘limining milliy ildizlari, ruhiy poydevori va zamonaviy yo‘nalishlarga moslashuvchan metodik asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalarini mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023-yil, 11-dekabr.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1992.
3. Qosimov B. O‘zbek milliy uy g‘onish adabiyoti & Xurshid Davron. Adabiyot – oinayi millatdur.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006.
5. Abdurashidxonov M. Maorif haqida. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1999.
6. Xoldorov N. Jadid pedagogikasi va zamonaviy ta‘lim tizimi o‘rtasidagi uzviylik // Ta‘lim va taraqqiyot ilmiy jurnali, 2017. – №3. – B.27-33.
7. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2002.
8. Gaspirali I. Rus-Turk maktablari to‘g‘risida. Qrim: Simferopol nashriyoti, 1993.
9. Abdulla Avloniy. Turkiston guliston yoxud axloq. Toshkent, 2008.
10. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2018.
11. Qurbonovich, M.U., Akramjon o‘g‘li A.R. (2023, June). Jadid pedagogikasi vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari // In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 129-135).
12. Abdullayev Ro‘zimuxammad Akramjon o‘g‘li. Jadid ma’rifatparvari abdulla avloniy asarlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ahamiyati // Pedagog, 48(2), P.185-189.